ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

O‘rinboyeva Elnora Furqat qizi

Toshkent viloyati Bekobod tumani

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

e6445214@gamil.com

TA‘LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ta‘lim tizimining o‘rni hamda unda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.Raqamli texnologiyalari ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil sifatida baholanadi.Shuningdek,maqolada O‘zbekistonda ta‘lim sohasini raqamlashtirish jaryonlari,mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlari: Raqamli ta‘lim innovatsiya,axborot kommunikatsiya texnolgiyalari,masofaviy ta‘lim,ta’lim sifati.

Аннотация:В данной научной статы рассматривается значение системы образования в разватие современного общества,а также теоретичикие и пректачекие астекты использования цифровых технологий в образовательном процеси.Цифровые технологии оценивалотся как важеный фиктор повыищеся эффективностии обузения,расвития самостоятельного мышления обучающихся и вывода качиства образования на новый уровень.Также анализируются процессы цифровизации образования в Узбекистане,сушествующие проблемы и пути их решился.

Annotation: This scientific article examines the role of the education system in the development of modern society and analyzes the theoretical and practical aspects of using digital thechnologies in the educational process.Digital technologies are considered an important factor in improving learning efficiency,fostering independent thinking among learners,and enhancing the overall quality of education.The article also discusses the digitalization of education in Uzbekistan existing challenges,and possible solutions.

Hozirgi davrda axborotlashgan jamiyat sharoitida ta‘lim tizimi strategik ahamiyat kasb etmoqda.Ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda an‘anaviy ta‘lim shakllari zamonaviy talablarni to‘liq qondira olmayapti.Shu sababli ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish global miqiyosida dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.Raqamli texnologiyalarni ta‘lim mazmuni boyitish,o‘qitish metodlarini takomilashtirish va ta‘lim oluvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar tushunchasi va uning mohiyati.

Raqamli texnologiyalar deganda axborotni electron shaklda yaratish qayta ishlash,saqlash va uzatishga mo‘ljallangan texnik va dasturiy vositali majmui tushuniladi.Ta‘lim sohasida ushbu

texnologiyalar electron o‘quv resurslari,virtual ta‘lim muhitlari onlayn kurslar va raqamli platformalar ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.Ular ta‘lim jarayonini interaktiv va moslashuvchan qilish imkonini beradi.

Ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalarning afzalliklari.Raqamli texnologiyalar ta‘lim jarayonida bir qator afzalliklarga ega.Jumladan, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta‘minlaydi.Ularning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobilyatilarini rivojlantiradi.Bundan tashqari,raqamli vositalar ta‘limni individuallashtirish imkonini yaratib, har bir ta‘lim oluvchining qobilyat va ehtiyojlariga mos yondashuvni ta‘minlaydi.

Masofaviy ta‘limning o‘rni va ahamiyati.Masofaviy ta‘lim raqamli texnologiyalar asosida shakllangan ta‘lim shakllaridan biri bo‘lib, u gegrafik cheklovlarni bartaraf etadi.Bu ta‘lim turi orqali turli hududlarda yashovchi shaxslar bir xil bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Masofaviy ta‘lim, ta‘lim jarayoning uzuluksizligini ta‘minlab ta‘lim olish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.So‘nggi yillarda elektron ta‘lim platformalari joriy etilib raqamli o‘quv resurslari yaratiladi.Shu bilan birga, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki raqamli texnologiyalar ta‘lim tizimini rivojlantirishda muhim strategik vosita hisoblanadi.Ular ta‘lim sifatini oshirish,innovatsion yondashuvlarni joriy etish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.Kelgusida ta‘lim sohasida raqamli texnologiyalardir samarali foydalanish mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta‘lim sohasiga oid farmoni 2.Karimov I.A. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent 3.UNESCO.Digital Transformation in Education
4.Rasmiy elektron ta‘lim platformalari va ilmiy maqolalar
5.Abdullayeva M.Ta‘limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash masallari.Toshkent.2022.